

TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ

—
JOURNAL
2022

№3

Bosh muharrir:

Pardaev A.H. JDPI, tarix fakulteti dekani, t.f.n. dosent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Aqchaev F.Sh. JDPI, tarix fakulteti, t.f.b.f.d. (PhD), dosent.

Mas'ul kotiblar:

Saidov J.O. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi
Xo‘janova M. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi

Tahririyat a'zolari:

- 1. Sagdullaev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik,**
- 2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 5. Choriev S. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 7. Pardaev M.H. – tarix fanlari doktori, dosent,**
- 8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 9. Yarmatov R. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent,**
- 11. Amanullaev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dosent,**
- 12. Toshboev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dosent,**
- 14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dosent,**
- 15. G‘ofurov J. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent**
- 17. Valiev A.X. – katta o‘qituvchi,**
- 18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi,**
- 19. Karimova N. – o‘qituvchi,**

Тарих ва Жамият илмий журнали

Sharqiy Ustrushona qishloq makonining me'moriy qurilish loyihasiga doir (Tirmizaktepa).

УДК 902.6

J. I. G'ofurov JDPI.

t.f.b. falsafa doktori (PhD), dots.

E-mail: jgofurov@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharqiy Ustrushonaning ilk o'rta asr qishloq makonlaridan Tirmizaktepa yodgorligida olib borilgan tadqiqotlari natijalari asosida, inshootning me'moriy qurilish loyihasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Sharqiy Ustrushona (Tojikiston), ilk o'rta asr, qishloq makonlari, Shaxristonsoy, Tirmizaktepa, me'moriy qurilish loyihasi, kulollik buyumlari.


Аннотации: В статье анализируется архитектурный проект здания по результатам исследований памятника Тирмизактепа из раннесредневековых сельских поселений Восточной Уструшны.

Ключевые слова: Восточная Уструшона (Таджикистан), раннее средневековье, сельских поселения, Шахристонсой, Тирмизактепа, архитектурно-строительный проект, керамика.

Annotation: The article analyzes the architectural design of the building based on the research results of the Tirmizaktepa monument from the early medieval rural settlements of Eastern Ustrushna.

Key words and phrases: Eastern Ustrushona (Tajikistan), early Middle Ages, rural settlements, Shakhristonsoy, Tirmizaktepa, architectural and construction project, ceramics.

Markaziy Ustrushonaning eng yirik shahar yodgorligi Qal'ayi-Qahqaha kompleksi atrofida gavjum, bir-biri bilan zanjir halqalari kabi ulanib ketgan sun'iy tepaliklar – qadimgi imoratlar o'rni qayd etilgan. Bu arxeologiya yodgorliklari, ayniqsa Kattasoy darasidan Sabat-Shahriston yo'liga chiqqungacha bo'lgan hududda nixoyatda zich joylashgan. Tepaliklar zanjirining birinchi halqasi – Tirmizaktepa 1950-yil O.I.Smironova rahbarligidagi Tojik Arxeologiya ekspeditsiyasining Ustrushona otryadi tomonidan qayd etilgan. 1956-yilda Kattasoy darasi yodgorliklarining qolganlari o'rganilgan va bu yodgorliklarning hech bo'lmaganda bittasida qazuv ishlari o'tkazish rejalashtirilgan. 1957-1960-yillarda Tirmizaktepada qazuv tadqiqotlari o'tkazilgan va yodgorlik arxeologik jihatdan butunlay ochilib o'rganilgan. Mualliflarning e'tirof etishlariga qaraganda, Tirmizaktepaning yuqori qismida ochilgan imorat majmuasi nihoyatda qiziqarli ma'lumotlarni bergan, va qolgan tepaliklarni ham mazmun–mohiyatini tushunishga asos bo'lgan (Negmatov, Pulatov, Хмельницкий, 1973, s.105).



Tirmizaktepaning me'moriy qurilish tarxi

Kattasoy darasida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, bu yerda Sabat pastekisligidan boshlab Shahrstongacha bo'lgan hududdagi arxeologiya yodgorliklari qo'riqchi postlari bo'lib, ularning barchasi daraning burilish joylarida shunday tartib bilan bunyod etilganki, ya'ni har bir postdan o'zidan avval hamda keyin kelgan qorovultepalar aniq ko'rinib turgan. Bu esa Sabat pasttekisligi tomondan kelayotgan dushman haqidagi xabarni bir-birlariga bildirish imkoniyatini bergan.

Tirmizaktepa balandligi 20m.ga yetgan tabiiy tepalik ustida, piramidasimon ko'rinishda joylashgan. Uning madaniy qatlamlari mavjud balandligi 4-5 m.ga, aylanasimon tepa qismi diametri 12m.ga teng. Tepalikning joylashuvi strategik jihatdan juda qulay holatda bo'lib, bu yerdan shimoliy, sharqiy va g'arbiy atrof muhit huddi kaftdagidek ko'rinish olgan. Bu esa mahalliy aholi tomonidan yodgorlikni ikkinchi nom Qorovultepa nomi bilan atashga sabab bo'lgan.

Tirmizaktepada o'tkazilgan qazuv ishlari rejali asosda, yodgorlikning ustki maydonini 4 qismga bo'lgan holda o'tkazilgan. Dastlabki qazuv ishlari shimoliy-sharqiy sektorda, keyin esa, shimoliy-g'arbiy, janubiy-sharqiy va janubiy-g'arbiy sektorlarda olib borilgan. Qazishmalar natijasida o'nta xona ochib o'rganilgan. Xonalar ochilish tartibiga ko'ra raqamlangan.

1-xona. O'z tashqi ko'rinishi jihatidan ensiz, uzun shakldagi mazkur xona sharqdan g'arbga cho'zilgan bo'lib, 15,3x2,2 m. o'lchamga ega. Uning janubiy va shimoliy devorlari bor bo'yi bilan saqlanib qolgan, sharqiy va g'arbiy devorlarining faqat pastki qismi saqlangan. Xona janubiy devorining sharqiy qismida eni 110

Тарих ва Жамият илмий журнали

sm.ga teng eshik o'zni saqlangan, u orqali 2-xonaga chiqilgan. Shuningdek, xona keyingi hayot bosqichida ochilgan tor eshik orqali markaziy koridor bilan bog'langan. Xonaning pol sathi 10-10sm. qalinlikdagi qo'ng'ir tusli kuygan qatlam bilan qoplangan, uning g'arbiy qismidan bug'doy qoldiqlari, shisha flakonning tepa qismi va buxorxudotlar tangasi tipidagi, al-Mahdiy yozuv tushirilgan tanga topilgan. Shuningdek, xonaning aynan shu qismidagi pol sathidan 15ta turli o'lchamdagi o'ralar qayd etilgan. Bu o'ralarning chuqurligi -20-28sm., diametri-60-70sm.ga teng bo'lib, ularning barchasida yirik hajmli xumlar o'rnatilgan bo'lgan. Xonaning pol sathida kuyib qorayib ketgan g'alla uyumlari, tashqi va ichki devorlari qurum bosgan xum siniqlari ko'p miqdorda topilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, bu yerda yong'in sodir bo'lgan va kuchli olov ta'sirida g'alla to'ldirilgan xumlar yorilib ketgan. Xonaning ushbu qismidagi pol sathi yupqa ganch bilan suvalgan. 1-xona o'z tuzilishi va unda qayd etilgan topilmalarga qaraganda Tirmizaktepada yashovchi aholining omborxonasi bo'lib xizmat qilgan (Negmatov, Pulatov, Xmel'nitskiy, 1973, c.109-110).

2-xona. Tirmizaktepa kompleksining sharqiy qismida, 1-xona sharqiy qismining janubiy tomonida joylashgan, to'g'ri to'rtburchak shaklida, o'lchamlari 520x210sm.ga teng. 2-xona dastlab markaziy koridor bilan 1-xonani bog'lovchi vazifasini o'tagan. Uning sharqiy devoridan tashqari barcha devorlari juda yaxshi saqlangan. G'arbiy devorning shimoliy qismida eni-110sm.ga teng eshik o'zni saqlangan, bu eshik orqali 1- va 2-xonalar markaziy koridor bilan bog'langan. Xona arksimon usulda yopilgan bo'lib, gumbazning ozroq qismi saqlanib qolgan.

Xonaning ichi lyoss tuproq, xom g'isht siniqlari, malla-kulrang kuygan qatlam bilan to'lgan. Chim qatlam tagidan xum, ko'za, qozon, sirlangan idishlar siniqlari, ulardan 1,5m.pastda, shisha idishlar siniqlari, hayvon suyaklari, sopol idishlar parchalari, pol sathidan esa o'rtasida kvadrat shakldagi teshigi bor mis tanga va turli mis ashyolar parchalari topilgan. (Negmatov, Pulatov, Xmel'nitskiy, 1973, s.111).

3-xona. Ushbu xona o'z tuzilishi, joylashuvi va o'lchamlariga ko'ra, boshqa xonalardan farq qiladi. Bu xona shimoliy-janubiy yo'nalishi bo'yicha cho'zilib ketgan, o'lchamlari 12x2,4m.ga teng bo'lib, Tirmizaktepa xonalari majmuyini – g'arbiy va sharqiy ikki qismga ajratib turadi. Mazkur qismlardagi aksariyat xonalar 3-xona bilan eshiklar orqali bog'langan. Xonaning markaziy eshigi janub tomonda bo'lgan, lekin u saqlanmagan. Pol sathidan qalin kul qatlami, 2 dona tanga, g'alla solib ko'mib qo'yilgan xurning pastki qismi, yong'oq po'chog'i, qovun, tarvuz urug'lari, sopol idishlar parchalari (jumladan, sirlangan sopol idishlar siniqlari) qayd etilgan.

Xonaning deyarli markazidan katta hajmdagi o'ra qazib ochilgan. Uning tepa qismi diametri 85-100sm.ga, teng, pastga tomon 145sm.gacha kengayib borgan. O'raning yon devorlari xom g'isht siniqlari bilan ihotalangan, chuqurligi 90sm.

Тарих ва Жамият илмий журнали

atrofida, tepalikning tosh qatlamiga qadar kavlangan. Tirmizaktepani qazigan arxeologlar mazkur o'rani funksiyasini aniqlay olishmagan. O'raning ichidan chiqqan naqshlangan sopol dasturxon sinig'i, sirlangan sopol idish parchalariga qaraganda, undan oddiy chiqindi tashlanadigan xo'jalik o'rasi sifatida foydalanilgan bo'lishi mumkin. 3-xona Tirmizaktepa xonalari orasida yagona, tomi yog'och bolorlar orqali tekis qilib yopilgan xona bo'lgan. O'zining joylashuviga ko'ra, u markaziy o'q koridor (vestibuly) vazifasini bajargan.

4-xona. Imoratning sharqiy qismida 2-xonaning janubiy tomonda joylashgan mazkur xonaning tuzilishi to'g'ri to'rtburchak shaklida, o'lchamlari 520x210sm., xona paxsa bloklari va 50-51x21x10sm.li xom g'ishtlardan ko'tarilgan devorlari (sharqiy devordan tashqari) ancha baland holatda saqlanib qolgan. Shimoliy devorning ikkinchi paxsa bloklari ustida arksimon shiftning pastki qismi saqlanib qolgan. G'arbiy devorda eni-1m.ga teng saqlangan eshik o'rni orqali xona markaziy koridor bilan bog'langan. Eshik ostonasi yog'ochdan qilingan, mualliflarning bunday fikr yuritishlariga eshik o'rning ikki yon kesakisida perpendikulyar holatda saqlanib qolgan "uya"chalar sabab bo'lgan (Negmatov, Pulatov, Хмельницкий, 1973, s.113).

Xona poli sathidan xom g'ishtlar siniqlari, yong'indan darak beruvchi kul qatlami, kam sonli sopol idish parchalari temir buyumlar topilgan.

5-xona. Tirmizaktepa imoratining g'arbiy qismida, 1-xona bilan janub tomondan yonma-yon holatda joylashgan, uning o'lchamlari 530x180sm, tuzilishi koridorsimon, to'g'ri to'rtburchak shaklda xonaning paxsa bloklardan ko'tarilgan shimoliy va sharqiy devorlari ravoqsimon shiftning boshlanish nuqtasiga qadar, ancha baland ko'rinishda, janubiy va g'arbiy devorlar esa juda past holda saqlanib qolgan. Sharqiy devorda xonani markaziy o'q koridor bilan tutashtiruvchi eni-90 sm.ga teng eshik o'rni saqlangan, uning ham ostonasi 4-xonaniki kabi yog'ochdan bo'lgan.

5-xonaning ichi lyoss qatlami, xom g'isht siniqlari bilan to'lgan. Pol sathidan 35-40sm. yuqorida ko'mirga aylanib qolgan bug'doy uyumi, pol sathidan kam hajmli kul qatlami, bir necha sopol idish parchalari topilgan. Devorlarning qizg'ish tusga kirganiga qaraganda ushbu xona ham yong'in ostida qolgan.

6-xona. Ushbu xona ham Tirmizaktepa imoratining g'arbiy qismida, yuqorida tavsifi bayon etilgan 5-xonaning janub tomonida joylashgan. Xonaning tuzilishi to'g'ri to'rtburchak shaklida, o'lchamlari 640x180 sm.ga teng. Janubiy va shimoliy devorlar bor eni bilan markaziy koridorga tutashgan, ularga eni 180 sm bo'lgan eshik o'rnatilgan bo'lgan, yon devorlardan uyachalarda archa daraxtidan yasalgan kesaki saqlangan. Bu qadar enligiga qaraganda eshik ikki tabaqali bo'lgan.

Xonaning ichidagi madaniy qatlamlar o'z tarkibiga ko'ra boshqa xonalarnikiga o'xshash. Pol sathidan 20-25sm. yuqoridan shisha idish parchalari topilgan, pol

Тарих ва Жамият илмий журнали

sathidan yupqa kul qatлами qayd etilgan. Shimoliy devorning o'rtasida pol bilan bir sathda o'yib yasalgan, "kamin"ga o'xshash 2 ta qurilma topilgan. Qurilmaning ichi kul bilan, devorlar qora qurum bilan qoplangan. Mualliflar ushbu qurilmalarni xonani isitish o'choqlari sifatida talqin qilishgan. Lekin mantiqan fikrlaganda xonani isitish uchun 2 ta qurilmani yonma-yon joylashishi biroz g'ayritabiiydek. Bizningcha ushbu o't-olov bilan bog'liq 2ta qurilmaning hech bo'lmaganda bittasi ovqat pishirish uchun qo'llanilgan. Chunki Tirmizaktepaning boshqa xonalarida bunday funksiyani bajarganligidan darak beruvchi topilmalar mavjud emas. Pol sathidan shisha idish dastasi, tagdoni topilgan.

7-xona. An'anaviy tarzda barcha xonalar kabi to'g'ri to'rtburchak shaklidagi ushbu xonaning o'lchamlari 520x200sm.ga teng, u markaziy imoratning sharqiy qismida, 4-xonaning janub tomonida joylashgan. Xonaning janubiy-sharqiy burchagi batamom buzilib ketgan, qolgan tomondagi devorlar pastki birinchi paxsa-blok balandligida saqlanib qolgan. G'arbiy devorda eni-110sm.ga teng eshik o'rni saqlanib qolgan.

Markaziy koridorga chiqish eshigi ostonasi yaqinidagi pol sathidan kundalik turmushda foydalanilgan xo'jalik o'rasi ochilgan. O'raning og'zi-210sm.ga, tagi-230.ga, chuqurligi 110sm.ga teng, devorlariga xom g'ishtlar terilgan va suvalgan. Tag qismi tabiiy tog' toshlariga qadar qazilgan, xom g'isht bilan qoplangan va sifatli loy bilan suvalgan. O'ra ichi lyoss tuproq bilan to'lgan, undan bir nechta sirlangan sopol idish parchalari topilgan. Ushbu o'raning ba'zi xususiyatlari, masalan yon devorlari hamda tag qismini yaxshilab suvab qo'yilishiga qaraganda, bizning fikrimizcha unda g'alla saqlangan.

8-10 xonalar. Markaziy imoratning janubiy qismida joylashgan mazkur xonalarning saqlanish darajasi juda yomon ahvolda. Tuzilish jihatidan tor, uzun yo'laksimon ko'rinishga ega ushbu xonalarning o'lchamlari 550x100sm.ni tashkil qiladi. 10-xonaning shimoliy devori bo'ylab kul va chala yonib ko'mirga aylangan qatlam qayd etilgan. Shuningdek, bu xonadan o'lchamlari 114x130sm. chuqurligi-70sm.ga teng xo'jalik o'rasi qayd etilgan. 10-xona markaziy imoratning xo'jalik xonalaridan biri bo'lganligi ehtimoldan uzoq emas.

8-xona pol sathining xususiyatlariga qaraganda bu yerda Tirmizaktepa imoratining tomiga, yoki ikkinchi qavatiga chiqish uchun xizmat qilgan pandus-ko'tarma yo'lak mavjud bo'lgan.

9-xona. Ushbu xona o'z tuzilishiga va ko'rinishiga ko'ra, ensiz, tor koridorni eslatadi, uning o'lchamlari 520x130 sm. Xona to'g'ridan-to'g'ri markaziy koridor bilan tutashmagan, balki eni 1m.ga teng eshik orqali 6-xonaga va u orqali o'q koridorga chiqilgan. Eshik o'rning tepa qismida to'g'ri to'rtburchak shaklidagi, ko'ndalang terilgan xom g'ishtlardan qilingan ravoqsimon eshik boshi saqlanib qolgan.

Тарих ва Жамият илмий журнали

Mazkur xona markazida pol sathini tozalash paytida arxeologlar to'g'ri to'rtburchak shaklidagi chuqurni qayd etishgan. Qazishmalar davomida pol tagidan, janubiy devor yonidan gumbazsimon kirish eshigi ochilgan. Pol tagida bunyod etilgan qandaydir xonaga uch pog'anali zinapoya orqali tushilgan. Bu yerda o'z paytida koridorsimon yerto'la faoliyat ko'rsatgan, uning pol sathi yuqoridagi xonalar pol sathidan 145sm pastda bo'lgan. Yerto'laning shakli "G"harfsimon bo'lib uning asosiy qismi devori 490sm.ga teng va shimol-janub yo'nalishida cho'zilgan. Uning sharqqa qayrilgan devori uzunligi – 339sm.ni, janubiy eni – 120sm.ni, shimoliy eni – 95sm.ni tashkil etadi. Yerto'laning asosiy devori 52x26x10sm.li xom g'ishtlardan, g'arbiy va janubiy devorlar 85x80 sm.li bir qator urilgan paxsa bloklardan, shimoliy qurama devordan ko'tarilgan. (Negmatov, Pulatov, Xmel'nitskiy, 1973, s.115-117).

Tavsifi bayon etilgan ushbu yerto'la xo'jalik xonalaridan biri bo'lgan. Uning qurilishi uchun Tirmizaktepaning tag zamini, monolit paxsadan qurilgan "stilobat"dan unumli foydalanilgan. 8-9-xonalar tagidagi tosh "materik" ustida stilobat orqali tekis sahn tayyorlangan. Bu esa o'z navbatida 8-xona ostidan boshlanadigan ko'tarma yo'lakni, 9-xona ostidagi yerto'lani yetarli darajada balandlik bilan ta'minlanishiga xizmat qilgan.

Markaziy koridorning shimoliy qismi tagida o'tkazilgan tozalash ishlari natijalariga qaraganda Tirmizaktepa markaziy imorati maxsus "fundament" ustiga emas, balki bevosita tepalik ustini tekislash, qurilish qilish uchun muayyan tekis maydon sifatida tayyorlangan "stilobat"- "tagkursi" ustiga qurilgan. Shu sababli, xonalar pollarida bunyod etilgan xo'jalik o'ralarining chuqurligi turli xil bo'lib, ular 45-50sm.dan-110sm.gacha o'lchamga ega.

Tirmizaktepaning qurilish me'morchiligi va xronologiyasi masalalari.

Ba'zi bir yo'qotishlarga qaramasdan Tirmizaktepa markaziy imoratining qurilish loyihasi yetarli darajada aniq ochilgan va o'rganilgan. Markaziy qurilish kvadrat shaklida bo'lib, -16x16m. o'lchamga ega. Qurilish majmuyini o'rtasidan o'tgan keng o'q koridor 10 ta xonadan iborat bo'lgan imoratni deyarli teng holatda ikki qismga ajratgan.

Imorat devorlari asosan 95x89; 120x90sm o'lchamlarda kesilgan, ikki qatorli paxsa bloklardan ko'tarilgan. Paxsa qator oralari va ba'zi devorlar to'laligicha, nafaqat Ustrushona, balki butun O'rta Osiyo binokorligida arablar istilosiga qadar qo'llanilgan xom g'ishtlar (50-52x23-26x10-12sm) bilan urilgan.

Tirmizaktepa qo'rg'oni balandligi 20m.dan ortiq bo'lgan, chiqish qiyin, tik qoyaning ustida bunyod etilgan. Qazuv ishlari va mikrorelyef xususiyatlariga qaraganda, imoratning kirish kompleksi pastroq va kirish eshigining oldida uning o'ziga xos maydoncha mavjud. Kirish kompleksi saqlanmagan, u to'g'ridan-to'g'ri markaziy koridor bilan bog'langan.

Тарих ва Жамият илмий журнали

Mualliflarning qayd etishlaricha, markaziy koridor, 3-xonadan boshqa barcha uylar xom g'ishtlardan terilgan gumbazsimon shift bilan yopilgan. 3-xona pol sathidan ko'mirga aylangan bololar va qamish qoldiqlari topilgan. Shunga qaraganda 3-xona haqiqatdan ham tekis "to'shama" usulida yopilgan (Pardayev, G'ofurov. 2016. 208-bet).

Tirmizaktepa me'moriy qurilish usullarini o'rgangan mutaxassislar uni Ustrushonaning ilk o'rta asr me'morchiligiga xos xususiyatlarini, loyihalash, xonalar tuzilishi, eshiklar o'rni va ravoqlari, qurilish ashyolari, kabi ko'plab jihatlarini qiyosiy o'rgangan holda, ilk o'rta asr me'morchiligi bo'yicha taniqli mutaxassislar, jumladan V.L.Voronina fikrlariga tayanib, inshootning dastlabki qurilishi davrini VII-VIII asrlar bilan sanalaydilar. Tirmizaktepada arab istilosidan keyingi davrlarda ham hayot davom etgan. Shunga ko'ra, undagi hayot to'rt bosqichda davom etgan:

I-bosqich-aynan qo'rg'on qurilgan davr bilan belgilanadi. 3,7,10-xonalardagi mavjud xo'jalik o'ralari, g'alla saqlangan 1-xona aynan shu bosqichda faoliyat ko'rsatgan;

II-bosqich-inshootda sodir bo'lgan yong'in va uning oqibatida yuzaga kelgan ayrim buzilishlar davri bilan bog'liq. Yong'inning nisbatan kuchli izlari, tomi yog'och, qamish bilan yopilgan 3-xonada kuzatiladi. Imoratdan ancha vaqtgacha foydalanilmagan, bunday fikrga kelishga 1,2,3,5,6-xonalardagi 30-35sm. qalinlikdagi chiqindi qatlamini qayd etilishi bo'lgan. Bu qatlam 1 va 2-yashash gorizontlarini bir-biridan ajratgan;

III-bosqich davrida markaziy imoratning 1 va 3-xonalari bir-biri bilan mazkur davrda ochilgan eshik orqali bog'langan. Shuningdek 8- va 10-xonalardan ham o'q koridorga olib chiquvchi eshik ochilgan;

Qazuv ishlari davomida qayd etilgan moddiy-madaniyat namunalarning asosiy qismi ushbu bosqichga taalluqlidir.

IV bosqich-Tirmizaktepa qo'rg'onining oxirgi yashash davri hamda butunlay buzilib xarobaga aylanishi, undagi hayotning butunlay to'xtashi bilan bog'liq. Mualliflar, ushbu imoratning 2-qavati mavjud bo'lganligini ehtimol tarzida bayon etishgan bo'lsada, bu fikrlarga asos bo'ladigan hech qanday topilmani qayd etishmagan.

Demak, Tirmizaktepa dastlabki hayot davri ancha uzoq davom etib, VII-VIII asrlar bilan belgilanadi. Keyingi qisqa hayot va birinchi hayot to'xtagan davr somoniylar davriga to'g'ri keladi va bu Nasr Sominiy davrida (892 yilgacha) zarb qilingan tanga bilan dalillangan. Keyingi III-IV bosqichlardagi hayot esa kulollik idishlari tahliliga ko'ra, XI-XII asrlar bilan sanalanadi.

Тарих ва Жамият илмий журнали

Adabiyotlar.

- 1.N.N. Negmatov. Ustrushana v drevnosti i rannego srednevekov'ya. Stalinabad, 1957.
- 2.N.N. Negmatov. U.P. Pulatov, S.G. Хмельницкий. Urta kurgan i Tirmizaktera. Dushanbe, 1973.
- 3.M.X.Pardayev. Severo-zapadnaya Ustrushana v epokhu rannego srednevekov'ya (po materialom nijnego techeniya r. Sangzar). Avtoref. kand. diss... Tashkent, 1995.
- 4.J.I. G'ofurov. Jizzax vohasining ilk o'rta asr qishloq makonlari va ularning asosiy funksional xususiyatlari haqida. O'zR FA Arxeologiya institutida 2012 yil 6-7 aprelda o'tkazilgan yosh olimlar Respublika konferensiyasi materiallari. Samarqand, 23-27 betlar.
5. Pardayev M.H., G'ofurov J.I. Ustrushonaning ilk o'rta asr qishloq makonlari (yozma va arxeologiya manbalari asosida). Toshkent, 2016.